

MIRQOSIMOVA Mar'guba

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi professori,  
pedagogika fanlari doktori*

## TOHIR MALIK IJODIDA MA'NAVIY MUAMMOLARNING BADIY TALQINI

### ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДУХОВНЫХ ПРОБЛЕМ В ТВОРЧЕСТВЕ ТАХИРА МАЛИКА

### ARTISTIC INTERPRETATION OF SPIRITUAL PROBLEMS IN THE WORKA OF TAHIR MALIK

**Annotatsiya.** Maqolada xalq yozuvchisi Tohir Malik qissalari tahlili asosida asarlariga xos uslub xususiyatlari, obraz yaratish mahorati, ma'naviy muammolar tadqiqi, insonlararo munosabatlarning badiiy talqini yoritilgan. Muallif yozuvchining inson dunyosi, imon e'tiqodi, unga berilgan hayot soniyalarining qadri haqidagi falsafiy estetik qarashlarining obrazlar orqali tasvirlanishi, hayotiy ziddiyatlar tasviriga e'tibor qaratish orqali odamlararo mehr-oqibatning ko'tarilishi qanday ma'naviy talofatlarga olib kelishini asarlardan misollar keltirish orqali asoslagan.

**Kalit so'zlar:** uslub xususiyatlari, obraz yaratish, mahorat, ma'naviy muammolar, falsafiy estetik qarashlar, qissalar tahlili, psixologik tahlil, obraz ruhiyati, qissachilikka xos tamoyil, so'z san'ati rivoji.

**Аннотация.** В статье на основе анализа ряд повестей народного писателя Тахира Малика выделены стилистические особенности его прозаических произведений, мастерство создания образов, исследование духовных проблем, художественная интерпретация человеческих отношений. Через описание образов автор обосновал философско-эстетические взгляды писателя на мир человека, веру, ценность отведенных ему секунд жизни, а также через примеры из произведений о том, к каким духовным потерям может привести уменьшение межличностной доброты.

**Ключевые слова:** стилистические особенности, создание образа, мастерство, духовные проблемы, философско-эстетические взгляды, анализ рассказов, психологический анализ, психика образа, принцип повествования, развитие речевого искусства.

**Annotation.** The article discusses the distinctive style characteristics, skill in creating images, exploration of moral problems, and artistic interpretation of interpersonal relationships in the works of Tohir Malik, a popular writer among the people. The author focuses on the author's depiction of the human world, moral beliefs, philosophical aesthetic views on the value of the fleeting moments of life given to him, and the promotion of human understanding and compassion through depicting life's contradictions. The article provides examples from Malik's works to support these ideas.

**Keywords:** style characteristics, image creation, skill, moral problems, philosophical aesthetic views, analysis of stories, psychological analysis, spiritual content of images, unique approach to storytelling, art of words.

## KIRISH

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi adabiyot va san'at sohasida ham milliy qadriyatlarga munosabat o'zgardi: ularni qayta tiklash, rivojlantirish, qadrlash sari yo'l ochildi. Bu jarayonlar birinchi navbatda o'zbek adabiyotida, xususan, nasrda bor ko'lami bilan namoyon bo'ldi. O'zbek nasrida hayotimizdagi ma'naviy muammolar, inson dunyosidagi evrilishlar, tafakkurdagi o'zgarishlar o'z ifodasini topgan. Bugungi nasr shaxs adabiyotiga aulanganligi, insonni tadqiq etayotganligini qator hikoyalar, qissa va romanlar misolida kuzatish mumkin.

## ASOSIY QISM

Xalq yozuvchisi Tohir Malik "Iblis devori" nomli qissasida inson dunyosi, imon e'tiqodi, unga berilgan hayot soniyalarining qadri haqida o'ylatadi. Odamlararo mehr-oqibatning ko'tarilishi qanday ma'naviy talofatlar keltirishi qator obrazlar ruhiyati orqali yoritiladi. Ota-ona vafotidan keyin nima uchun farzandlar ko'nglidan raqobat, hasad, kek, adovat bunchalar tez o'rin egallaydi? Ayrim

jigarlar hatto yuz ko'rmas bo'lib ketadilar? Nahot ular ota-onalari bu ko'rgiliklardan azob chekishini o'ylamaydilar? Yozuvchi kitobxonga ayni savollarni To'lqin va Robiya, Sattor bilan Obodxon hayotlarining ichki manzaralarini tasvirlash orqali ko'ndalang qo'yadi. Ularning amakisi Ibrohim bobo tilidan aytiladigan haq so'zlar, rivoyatlar shunchaki oddiy cho'pchak yoki nasihat emas, imon faryodi ekanini his qilamiz:

“Bu devorga chidasa bo'lar, vaqti kelib o'zi yemiriladi yoki boshqa bir sabab bilan olib tashlanar. Lekin aka bilan ukaning yuraklari orasiga devor tushsa, yomon juda yomon.... Hovlini g'isht devor ajratsa, yurakni bemehrlik devoiri parchalab tashlaydi. Bilib qo'ylaring: bu devor ko'ngillaringga picha orom berganday bo'lar-u, ammo qiyomatdagi javob og'ir kechadi. Shuni ikkovlaring bir ahllashib ko'ringlar. Xudodan qo'rqmasalaring, qiyomatdan qo'rqmasalaring, hech bo'lmasa, bolalaringdan uyalanglar”. Asar muqaddimasidagi manzara tasviri qabristonga xos sukunataro qay bir qabr tepasidan shaffof nur, qay biridan “kirlangan dud” ko'tarilayotganday tasavvur uyg'otadi, kitobxon dud o'rlayotgan qabr ostidan hasrat nolalarini eshitganday bo'ladi:

“- Dadasi, bolalarimiz nega bemehr bo'lib qoldilar?

- Bilmayman, onasi.

- Yuz ko'rmas bo'lib ketishmasa –ya?

- Endi kech, onasi...

- Bir qoringa siqqan, katta hovliga sig'ishmaydimi?

- Taqdir shu ekan, onasi.

- Taqdir? Go'rdagi azoblarimiz kammidi?

- Agar hovlini ikkiga bo'lib devor olishsa ruhimiz battar nimta-nimta bo'lmaydimi?

- Taqdir onasi... bizning mukofatimiz shu ekan....

Go'rdan azobli nola eshitaladi... Nola so'kkayib turgan qabr toshlarga urinib, aks-sado beradi-da, so'ng go'yo qabristonni silkitib yuborganday bo'ladi. Go'yo qiyomat boshlanganday....”

O'tganlar ruhining azobi va bezovtaligi sabablari bu dunyodagi aka va uka o'rtasidagi ziddiyatlar tufayli kechishi; bu ziddiyatlar markazida ilm yo'lidan voz kechib, jaholat yo'lini

tutgan uka, iblisbor dunyosini mahv etgan rafiqasi Obodxon (odamlar unga Ofatxon deb nom bergan) turishi, uning to'riga tushgan, kirlangan, xarob ko'ngil mayllari, ojiz istaklari, maqsadlari turishi anglashiladi.

“Subhi sodiq hech bir xonadonga hiyonat qilmay barchanikiga o'z vaqtida baravar kirib keladi. Bandalarning ayrimlari tong xush xabarini yangi kunga yetkazgani uchun yaratganga shukrlar qilib kutib olsa, ba'zilar to'yib uxlab olish maqsadida iblisning huzurbaxsh choyshabiga burkangancha qarshilaydi. O'rtasi darvozaxona, ikki tomoni bir xildagi uy va ayvondan iborat, oshxona, qo'yxonadan iborat bu xonadan subhi sodiq fazilatini ayniqsa yoz oylari his qilib ko'rmaydi.... Qarshidagi uyda ham harakat jonlandi. Sattor yotoqxonadan maykachan chiqib kelib, kechqurun yig'ishtirilmagan dasturxon ustidagi rangli shirinsuvdan ichdi-da, kerishib oldi....” [1. 30-31.]

Tasvirlanadigan manzara aka-uka xonadonini poklik, imon nurlari allaqachon tark etganiga ishora: hatto bo'yi yetgan ikki qizi bo'la turib kechqurungi dasturxon ertasi quyosh terak bo'yi ko'tarilganda ham yig'ilmagan, idishlar yuvuqsiz...

Hatto oila boshlig'i Sattor yuvuqsiz holatda maykachan yotoqdan chiqib, yuvuqsiz idishni tutib, suv ichadi, bundan hech qanday jirkanishni his qilmaydi. Ko'cha taraf ham, hovli ham supurilmagan; bu xonadonni ham, unda yashovchi odamlar ko'nglini ham poklik allaqachonlar tark etgan. Bu holatni anglagan kitobxon keyingi voqealardan ham ajablanmaydi. Obodxonning fisqi fasodlari miyasiga uya qurgan Sattorning nurab ketgan ko'ngil olami, imon imorati asta qulab boradi. Uni tutib qolishga To'lqin va Robiya harchand urinmasinlar, ilojsiz qoladilar.

Kibru-havo, pul, mol vasvasasi avj olgan hovlida “iblis devori” qad ko'tara boshlaydi.

“Sattor xotining amrini bajarish uchun o'rnidan turayotgan mahalda Ibrohim shiyp onidagi gulxanga o't qalab mudrab o'tirgan edi... Ahyon-ahyonda olov bag'ridan uchqunlar otilib chiqib, atrofga sachraydi. Ana shunday uchqunlar otilib chiqib, atrof-gabir zum yorug'lik taratganda Shavkat bilan Farida yana paydo bo'lishdi. Ular

munqli ko'zlarini Ibrohimga tikib jim turaverishdi. Sachragan uchqunlar ularning ustiga tushsa ham jim turaverishdi.

Aka-uka o'rtasida ayni damda o'zgacha muloqot –mojaro ketmoqda edi.

- Agar baxt haqida o'ylasam, uyimizni ko'p eslayman. Bittagina xonada yashardik. Biz uchun hech qanday g'am-tashvish yo'q edi. O'sha shirin damlardan o'tadiganini men ham uchratganim yo'q. Senam shuni o'ylaysanmi?

- O'yladim nima-yu, o'ylamadim nima? Baxt bir xil bo'lmaydi. Bir qorindan tushganimiz bilan, bir hovlida yashayotganimiz bilan meniki boshqa sizniki boshqa.

- Yaxshi gapirding. Baxtlimiz ham xuddi qozon-tovog'imizga o'xshagan boshqa-boshqa. Hayotning hukmi shunaqamikan yo bizning nodonligimiz uchun shunday bo'lib qolganmikan?

- Bilmayman, - dedi Sattor jerkish ohangida.

- Menam bilmayman, - dedi To'liqin bosiqlik ohangini o'zgartirmay.

- lekin har qanday baxtsizlikning avval boshida odamning nodonligi turadi. [3. 124]

Nodonlik tufayli Sattor hovlini bo'lishga, o'rtadan devor olishga kirishadi, oqibatini esa yana nodonlik tufayli o'ylamaydi, o'ylashni-da istamaydi. Qahr-g'azb bilan aytilgan ukaning so'zlari go'yo o'qqa aylanib, uchib borib qabrstoniga, ota-ona go'riga sanchilgan edi.

“Bu onda Sattor vahimali tush ta'sirida to'lg'anayotgan edi. Bir qarasa, devor bitganmish. Biroq.... devor ostida adasi bilan oyisi yotganmish.

Sen devorni ko'kragimiz ustidan qurdirding. Ezilib ketyapmiz, - deb ingrarmish oyisi.

- Bunaqada, o'ldirib qo'yasan, - dermish adasi.

Sattor jon holatda devorni buzayotganmish. [3. 169. ]

Devor tiklash uchun terila boshlangan g'ishtlar xuddi zilzila bo'lganday, ag'anab tushardi. Devor tiklashga kelgan ustalar bu hodisadan hayratlanib, xosiyatsiz joy ekan”, -deya qaytib ketishadi. Xotining “ uy-joy kenja o'g'ilga qilingani haqidagi xat borligi, bu xatni akasi ataylab yo'qotib yuborgani ” haqidagi bo'xtonlarni miyasiga mixlab tashlangan Sattorga tushida otasi xatni qayerda ekanini aytib ketadi. O'z uyidagi javon ortidan

topilgan vasiyat xatni o'qib, lol qoldi: Otasi ularga mehri – oqibatni meros qilib qoldirgan edi.

“Iblis devori”ning qulashiga xali ko'ngil olami pokiza, imoni kirlanmagan Salohiddin, Badriddin va Oftobxon ham ma'lum darajada sababchi bo'ladilar. Uydagi ota- onasi, amakisi oilasi bilan bo'lib turadigan janjallar, “bombalar portlashi joniga tekkan Salohiddinning uyga oylab kelmay qo'yishi; Baxriddinning bu mojoralarga o'z munosabatini ijodi, kuy-qo'shiqlari, ta'sirchan she'rlari bilan bildirishi; Oftobxonning esa isyon ko'tarib, o'zini o'ldirishga shaylangani... bularning bari kattalarni sergaklantirdi, so'qir ko'ngil ko'zlarining ochilishiga sabab bo'ldi.

To'g'ri asar xotimasida yozuvchi voqealar yechimini kitobxonlar hukmiga havola qilganini ta'kidlagan. Har holda biz “Iblis devori”ning qulashi va imonga qaytish orqali odamlar hidoyat yo'lini topishlarini istaymiz. Ushbu qissa orqali adib o'z kitobxonlarini shu yo'l sari chorlaydi: insofga, poklikka, imonga da'vat qiladi. Asarning badiiy-ma'rifiy qimmatini ham shunda deb o'ylaymiz.

“Ozod inson haqida qo'shiq” xujjatli qissasi esa XX asr adabiyotining nodir durdonalaridan biri “Farg'ona tong otguncha” romani muallifi Mirzakalon Ismoilij hayotining eng og'ir yillari haqida hikoya qiladi. Qissa aniq yillar, sanalar va voqealar orqali bayon qilingani uchun muayyan darajada “hujjatli” dalillar asosidagi hayot yo'lini eslatadi.

Tabiatan serg'ayrat, jikkakdan kelgan, irodali bu odamning xasta holda yotishi, o'z umrini bir-bir ko'z oldidan o'tkazishi kitobxonda unga hamdardlik, hamfikirlik kayfiyatini uyg'otadi. Asar voqealari metin irodali, murakkab hayoti davomida ko'p adolatsizliklarni, “do'stlar” xiyonatini boshidan kechirgan Mirzakalon Ismoilijning ruhiy xolatiga monand tasvir bilan boshlanadi: “Qish o'zining avvalgi hovuridan birmuncha tushib, bahor siqig'i bilan chekina boshlagan bo'lsa ham hanuz o'z yo'llarida alam zaxrini sochib boradi. Uning achchiq izg'irinlari iliq bahor yillariga ba'zan hamla qiladi, tamom qo'zg'alib, kuchga kira boshlagan dilkash hayotni bo'g'moqchi bo'ladi. Lekin borliqni uyg'otgan bahor o'z o'jarligini qo'ymaydi.

Bahor o'jar.

Bahor nafasida xuruj qilayotgan xastalik o'jar.

Bemor sirtidan qaraganda xushsizday ko'rinsada, siyrati-la yashamoqda, ruh kengliklarida kezmogda edi. "Orzuni o'sha yillar bo'g'ishgan bo'lsa-da, kemirishlardan, yemirilishlardan qutilishni, sof havoni hanuzga qadar istaydi..."

"Darchadan tushib turgan zaif yorug'lik go'yo uning orzulariga o'xshaydi. Sovuq va ochlikdan dir-dir titrab, Darxondagi bog'larini eslaydi... Tunda so'roq qilish uchun olib ketayotganlarida esa qorong'u yo'laklardan lahat sari ketayotganday his qiladi, a'zoyi badani muzlab qoladi. ". [1. 103.]

"Tergov jarayoni nima qilib bo'lsa-da yozuvchini "o'z aybiga iqrar bo'lishga" "xalq dushmani" va "Millatchi" sifatida amalga oshirgan "ishlarini yozib berish"ga undashdan, bunga erishishdan iborat edi. Ammo mahbus qaysi "aybi"ni tan olishni, qaysi gunohi uchun bunchalar jabr chekayotganini bilmas edi."

Turmaning bir kishilik siqiq xonasida xavotirlar iskanjasida o'tirgan Mirzakalonning qo'li tolib, qalamni qo'ydi. Nafis adabiyot namunalarini yozishi kerak bo'lgan bu qo'l, bu qalam, hayot haqiqatlarini o'ylab, mulohaza qilishi lozim bo'lgan bu ong qandaydir pastkash yumushlar bilan band edi. Mirzakalonning yuragi bu turma siqiligidan emas, shu tuban ishlar bilan band ekanidan azob chekardi. O'z azoblarini esa "Farg'ona tong otguncha" ramanini yozish jarayonida birmuncha yengillatishga urinardi. Bu haqda u o'z muxlislaridan birining maktubiga yozgan javobida quyidagilarni bayon qilgan ekan: "kitobni o'qib turib ho'ngrab yig'lab yubordim", deysiz. Neajab, yerga qanday urug' tashlasangiz, hosili shunday bo'ladi... men bu kitobni yoza turib qanchalar yig'laganman, qanchalar qon yutganman!.. qo'ying, boshqa tafsillarning qorasi o'chsin! Bu shunchaki bir kitob emas, yo'q, shaxsga sajda davrining qora kunlarida ming azob, ming to'lg'oq bilan tug'ulgan g'arib xilqat. Ha, xilqat!.. Bu mening yig'lay- yig'lay topgan bolam! [1. 108.]

Asarda har qancha azoblar-u tepkilashlarga bardosh berib, vijdonini sotmagan, do'stlariga xiyonat qilmagan metin, mard inson qiyofasi namoyon bo'ladi;uning iztiroblar iskanjasidagi

ruhiyatini, o'y-kechinmalarini kitobxon his qiladi, izillab yig'laydi. . . .

Qissa qahramoni – xalq yozuvchisi Mirzakalon Ismoiliiy o'z xalqining sodiq farzandi, vijdonli inson sifatida mislsiz uqibatlarini boshidan kechirgan bo'lsa-da, vijdoniga qarshi ish qilmaganligi – barhayotligi sababi ekanini anglaymiz.

Filologiya fanlari nomzodi Tohir Shermurodov Tohir Malikning "Shaytanat" asari muayyan kamko'stlaridan ko'z yumman holda o'zbek nasridagi yangi va to'ng'ich dediktiv asar ekanini alohida ta'kidlab: "Yozuvchisining uslubi, shar'iy nuqtai nazari, qahramonlarning xarakter rivoji o'ziga xocligiga " diqqatni qaratgan edi: "Shaytanat" – san'atkorona nom - topildi, - deb yozadi olim, - u katta – kichik mafiya to'dasi yoki alohida jinoyatlar dunyosinigina emas, odatiy muhitdagi turfa illat, turfa qilg'illiklarni, bandalar adashuvlari sababiyati va ziddiyatining nokasliklarini qamrab anglata olguvchi tushuncha... "Shaytanat" muallifining shar'iy dil nigohi tasvirning barcha – barchasini qamrab oladi. Hech bir voqea, hech bir qismat, hech qaysi kechinma mushohada, g'oyibiy tasavvur hotima, yechim bu nuqtai nazardan chetda qolmaydi. Oyatlar, hadislar, tushlar, rivoyatlar, she'riy parchalar ham jam bo'lib shu ruhni asarning yagona joziba qonuniyatiga aylantirgan. Bu ruh muayyan umumlashmalarga ham ziynat, tarovat baxsh etadi, - deb yozganida asarning bosh xususiyati va yutug'ini ifodalagan edi.

Darhaqiqat, "Savohil" dan "Shaytanat" ga qadar uslubi bilan mahorati sayqal topib borgan yozuvchi keyingi qissasida " mafiya " deb atalmish yovuz kuchlar timsolini ruhiyat dunyosidan turib tasvirlay olgan. Asadbek qiyofasi voqealar oqimida asta-sekin yorqinlik kasb etib, butkul "qora" rangni emas, turfa ranglar uyg'unligini o'z dunyosi ila namoyon qiladi; ko'z o'ngimizda o'zgarib boradi, yovyz kuchlardan, ular dunyosidan Asadbek uzoqlasha boshlaydi.

Uni hech kim hidoyat yo'liga sola olmaydi. Bu yo'lni u adashishlar, yovuzliklar, xatolar, yo'qotishlar, azoblar ichida o'zi topib boradi. Shaytanat dunyosidan bilib-bilmay uzoqlashadi. Hatto kasalxonadan chiqib, albatta namoz o'qiyman, masjidga har kuni boraman, deb xayoldan o'tkazadi. Ammo boshqa yumushlar ichida buni

unutadi. Boshqacha bo‘lishi esa kitobxonni xayron qoldirgan, qahramonni esa tabiiylikdan, asarni bo‘lsa, hayotiylikdan uzoqlashtirgan bo‘lardi. Zotan, Asadbek qiyofasi, ruhiyati, xarakteri, ishonch-maslagi, kurash – intilishlari yo‘li silliq, birdan o‘zgaruvchan emasligini kitobxon allaqachon payqagan edi. Asadbek musibatlarining keti uzilmaydi. Asadni hayot sinovlari haqiqatga, xaqqa yaqinlashtiradi.

### XULOSA

Qissadagi rang-barang qiyofalar: Qarimulla, imom Sobitxon, Asadbekning qadirdoni Jalil, Muslima, Manzura va boshqa ko‘plab obrazlar inson surati va siyrati betakror, g‘oyat sirli, ajib nurli, hatto jirkanch, qo‘rqinchli bo‘lishi mumkinligini faxmlatadi. Adib ba‘zan dramaturg kabi ruhiy iztiroblarni fojeaviylikka yo‘g‘irib tasvirlasa, goho sokin o‘ychanlik, goh mushohada- muhokama, goh qaltis holatlar asar voqealari oqimini muvozanatdan chiqaradi. Shaytanat olamini tasavvur etamiz va o‘sha olamning qo‘rqinchlaridan sergaklanamiz, hayajonlanamiz, iztirob chekamiz. Kitobxon Asadbekning musibatlarini yurakdan his qiladi. Uning “Asar bergan voqealiklarning evaziga tinchligimni olgan bo‘lsang, meni gado qil, ammo bolalarimning baxtiyorligini ber, bir kecha tinchgina uxlay”-, deb yaratganga tavallo qilishidan ta’sirlanamiz. Bayonchi roviy “ Namozxonlar tursa-turdi, rukuga borsa, ruku qildi, sajdaga bosh qo‘yganda u ham joynomozga bosh qo‘ydi”, - deb tasvirlaganida ilohiy qoniqishni his qilgan Asadbek xolatini o‘z borlig‘imizga tuyamiz.

“Shaytanat” o‘zbek detektiv adabiyotidagi yangichaligi bilangina emas, mazkur fazilatlar orqali kitobxonlarni hidoyatga chorlashi bilan ham e’tiborga loyiqdir. Hidoyat yo‘ligina har turli adashuvlardan qutilish, inson sifatida yashamoqlik va najot topmoqlik yo‘li ekanini Asadbek kech bo‘lsada anglagani kabi muallifning ilgari surgan badiiy tafakkur tarzi ham kitobxonlarni ezgulikka chorlaydi. Bunday asarlar hamisha o‘zbek nasrini uslubiy o‘ziga xosligi jihatidan olam manzaralari va inson dunyosini, surat-u siyratlarini yangi jihatlardan idrok etib, tasvirlay olganliklari natijasi sifatida qissachilikka xos alohida tamoyil sifatida zohirlahganligini ta’kidlaymiz. Badiiy estetik

tamoyillar esa adabiyot, badiiy so‘z san’ati rivojiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tohir Malik. Ozod inson haqida qo‘shiq. – T. : Sharq – 2008.
2. Shermurodov T. Jozib Izxor izlab. – T. : Milliy kutubxona. 2009. – B.129-130.
3. Tohir Malik. Iblis devori. – T. : Sharq, 2006.
4. Mirqosimova M. So‘z iztiroblari. – T. : Milliy kutubxona, 2010.